

**YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGI TIZIMIGA INNOVATSION LOYIHALARNI JORIY ETISH**

**Utkirov Shokirho'ja Shavkat o'g'li**  
*Toshkent Davlat Transport Universiteti assistenti.*

Bugun taraqqiyotning shunday davrida istiqomat qilmoqdamizki, keljakda o'z o'rnimizni topishimiz va rivojlanishimiz uchun hayotimizning barcha jahbalariga innovatsion loyihalarni joriy etishimiz zarur. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev ham o'z ma'ruzalaridan birida: «hozirgi kunda dunyo miqësida shafqatsiz raqobat tobora keskin tus olmoqda. Bunday murakkab sharoitda zamonaviy ilm-fan va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish bo'yicha biz uzluksiz ish olib borishimiz kerak. Nega deganda, bu masala hozirgi vaqtida aholi farovonligini yuksaltirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini barqaror rivojlantirish, Vatanimizning yorug' kelajagini bunyod etishning hal qiluvchi omiliga aylanmoqda», deb ta'kidlagan edi.[1]

Adabiyotlarda mualliflar tomonidan innovatsiya tushunchasiga turli nuqtai nazarlardan ta'rif berilgan xususan, B. Brayan va B. Santolar uni jarayon sifatida N. Lapin tizim sifatida, F. Valenta va I. Voldachecklar o'zgarish sifatida, A. Levinson va L. Goxberglar natija sifatida ta'riflashadi.[2]

Shuningdek, innovatsiyani yana ayrim mualliflar iqtisodiy kategoriya sifatida, yana boshqalari esa huquqiy va falsafiy kategoriya sifatida o'rganishgan. Umuman olganda bugun davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini rivojlantirshini innovatsiyasiz tasavvur etish juda mushkul.[3]

Shu sababli innovatsiya tushunchasiga nisbatan har bir soha va fan tarmog'i nuqtai nazaridan turlicha yondashuvlar mavjud. Boshqa davlat organlari singari IIV oldida ham bugun innovatsion loyihalarni keng joriy etish masalasi turibdi. O'tgan qisqa vaqt mobaynida IIV faoliyatiga bir qator innovatsion loyihalar va ishlanmalar joriy etildi. Xususan, «Xavfsiz shahar», «Xavfsiz poytaxt», «Xavfsiz turizmni ta'minlash», «Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash», «Xavfsiz xonardon» kabi o'ziga xos yangicha kontseptsiyalar haётga joriy etilmoqda. Shuningdek, hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 oktyabrdagi «Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasida investitsiyaviy loyihani amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3989-son qarori asosida Andijon, Namangan, Toshkent va Farg'ona viloyatlari hududida Germaniyaning nufuzli «ATLAS International» kompaniyalari guruhi bilan hamkorlikda «O'zbekiston Respublikasida yo'l harakati qoidalari buzilishini foto-video fiksatsiya qilishning avtomatlashtirilgan tizimi» investitsiyaviy loyihasi tatbiq etilmoqda. Fikrimizcha, yo'l harakati xavfsizligi tizimiga innovatsion loyihalarni yanada kengroq joriy etish yuzasidan quydagilarni amalga oshirish lozim:[4]

birinchidan, yo'l harakati xavfsizligi tizimiga innovatsion loyihalarni joriy etishning istiqbolli strategiyasini ishlab chiqish va uni izchillik bilan amalga oshirish;

ikkinchidan, yo'l harakati xavfsizligi tizimiga innovatsion loyihalarni joriy etishning aniq yo'nalishlarini joriy etish;

uchinchidan, yo'l harakati xavfsizligi tizimiga innovatsion loyihalarni joriy etishning huquqiy asoslarini yaratish;

to'rtinchidan, yo'l harakati xavfsizligi tizimiga innovatsion loyihalarni joriy etishning institutsional hamda ilmiy-amaliy metodik asoslarini yaratish.[5]

Beshinchi yo'nalish, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda ma'muriy javobgarlik asoslarini takomillashtirish. Bunda quyidagilar taklif etiladi: bitrinchidan, tahlillar so'ngi 5 yil davomida haydovchilar tomonidan sodir etilgan yo'l harakati qoidabuzarliklarining 9-10 foizi takroriy sodir etilganligini ko'rsatmoqda. Xususan, respublikamizda Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati tomonidan

2016 yilda 3.385.051 ta qoidabuzarlik (339.810 tasi takroran),

2017 yilda 3.722.430 ta qoidabuzarlik (371.358 tasi takroran),

2018 yilda 3.726.150 ta qoidabuzarlik (373.721 tasi takroran),

2019 yilda 4.881.457 ta qoidabuzarlik (451.403 tasi takroran),

2020 yilda 3.806.128 ta qoidabuzarlik (374.218 tasi takroran)

aniqlangan. Yuqoridagilardan kelib chiqib MJtKga yangi 281-modda kiritish va unda jarima ballari asosida transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum qilishni nazarda tutish lozim. Ikkinchidan, hozirda kunda haydovchilar tomonidan turli mast qiluvchi, gangituvchi dori vositalarini iste'mol qilgan holda transport vositalarini boshqarish holatlari ko'payib bormoqda. amaliyotda ushbu turdag'i qoidabuzarlik holati aniqlangan holda sodir etilgan huquqbazarlik uchun chora ko'rishning huquqiy asosiy yo'qligi sababli, fuqarolar tomonidan e'tiroz bildirishi natijasida ushbu turdag'i huquqbazarlik holatlari jazosiz qolmoqda. natijasi turli yo'l-transport hodisalari sodir etilishiga zamin yaratilmoqda. Shu sababli MJtKning 32-moddaga ma'muriy javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlardan biri sifatida belgilangan 6-badni quyidagi tahrirda bayon etish: huquqbazarlikning mast holatdagi èki gièvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar èki shaxsning aql- idrokiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa moddalar ta'siri ostida sodir etilishi. Bunda haydovchilar tomonidan turli mast qiluvchi, gangituvchi dori vositalarini iste'mol qilganlik holatlari uchun jazo choralar qo'llash orqali yo'l-transport hodisalari oldi olinishiga zamin yaratiladi. Uchinchidan, amaliyotda noma'lum shaxs yo'l-transport hodisasi sodir etib, hodisa joyidan yashirinishi oqibatida hujjatlar to'plamini huquqbazar topilgunga qadar ma'muriy javobgarlikka tortish muddati o'tib ketadi, bu esa huquqbazarlik uchun jazo muqqarraligini ta'minlashda muammolar keltirib chiqarib, jabrlanuvchilarining e'tirozlariga sabab bo'lmoqda. Bu borada raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak 2019 yilda 1097 ta, 2020 yilda 1093 ta, 2021 yilning to'rt oy davomida 359 ta ma'muriy ish hujjatlari to'xtatilishiga sabab bo'lgan. 2019 yilda 1097 ta, 2020 yilda 1093 ta, 2021 yil 5 oyida 615 ta ma'muriy tartibdagi YTHlari bo'yicha haydovchilar hodisa joyidan ketib qolish holatlariga yo'l qo'yigan. Shu sababli mazkur muammoni hal etish maqsadida MJtKning 36-moddasini (ma'muriy jazo qo'llanish muddatlari) quyidagi mazmundagi yangi to'rtinchchi qism bilan

to'ldirish maqsadga muvofiq: "To'xtatilgan ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish tergovga qadar tekshiruv organlari tomonidan qayta tiklangan hollarda ma'muriy jazo chorasi shaxsni ma'muriy javobgarlikka tortish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay qo'llanilishi mumkin". Rossiya Federatsiyasi MPKda, Qирг'изистон MPKda va Тоjikiston MJtKda bunday tartib belgilangan. To'rtinchidan, bugungi kunda aksariyat haydovchilar tomonidan xavfsizlik kamarlaridan foydalanmasdan transport vositalarini boshqarish holatlari mavjud, fuqarolarimizda ushbu turdag'i huquqbazarlik holatiga e'tiborsizlik bilan qarashlari natijasida yo'l-transport xodislari sodir bo'lganda og'ir oqibatlarga olib kelmoqda. Bu borada raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak 2018 yilda 849 827 ta, 2019 yilda 984 936 ta, 2020 yilda 814 941 ta, 2021 yilning 5 oyi davomida 444 753 ta xavfsizlik kamarini taqmagan yo'l harakati qoidabuzarliklari aniqlangan.

-2018 yilda 68 ta og'ir oqibatli yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan 225 nafar fuqarolar halok bo'lgan, 205 nafar fuqarolar tan jarohati olgan.

-2019 yilda 53 ta og'ir oqibatli yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan 127 nafar fuqarolar halok bo'lgan, 179 nafar fuqarolar tan jarohati olgan.

-2020 yilda 40 ta og'ir oqibatli yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan 103 nafar fuqarolar halok bo'lgan, 116 nafar fuqarolar tan jarohati olgan.

-2021 yilning 5 oyi davomida 20 ta og'ir oqibatli yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan, 74 nafar fuqarolar halok bo'lgan 74 nafar fuqarolar jarohati olgan. Vaholanki yo'l harakati qoidalariiga amal qilgan holda xavfsizlik kamaridan foydalanganda ushbu yo'l-transprt hodisalarida hayotlarini saqlab qolish hamda kelib chiqishi mumkin bo'lgan og'ir oqibatlarni yo'l qo'ymaslik imkonyati yuqori bo'lgan bo'lardi. Shu sababli haydovachilar tomonidan xavfsizlik kamaridan foydalanish qoidalariini buzish bilan bog'liq xolatlar kamayishiga, yo'l-transport xodisalari natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan og'ir oqibatli xolatlarni barvaqt oldi olinishini ta'minlash maqsadida haydovchilarining transport vositalarini boshqarish va yo'lovchilar tashishda xavfsizlik kamaridan foydalanish qoidalariiga, xuddi shuningdek mototsikl va mopedlar haydovchilarining motoshlemlardan foydalanish qoidalariiga riosa etmasligi uchun jarima miqdorini oshirish maqsadga muvofiq.

Xulosa o'rnila aytish mumkinki, fan-texnika imkoniyatlarini yanada kuchaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiètning dolzarb muammolarini hal etishda fanning ahamiyatini oshirish, muhim tadqiqotlar va innovatsiya jarayonlari kengaytirish hozirgi kunning kechiktirib bo'lmas vazifalaridan biri sanaladi.

**REFERENCES:**

1. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir / Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi //URL: <http://xs.uz> (Xalq so'zi, 08.12.2017).
2. Shakirova F.B. Innovatsiyalar asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning ayrim nazariy jihatlar // Iqtisodiet va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 5, sentabr-oktabr, 2018 y.
3. Otajonov SH.I. Innovatsiya faoliyati infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari samaradorligini oshirish: Iqt. fan. dok. (DSc) dis. avtoref. – T., – 2018 – 94 b., Shakirova F.B. Innovatsiyalar asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning ayrim nazariy jihatlar // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 5, sentabr-oktabr, 2018 y., Yoziyev G'L. Kichik biznes va xususiy tadbirdorlikning mamlakat innovatsion rivojidagi salohiyatini oshirishning asosiy yo'nalishlari (Osiyo-tinch okeani mintaqasi mamlakatlari tajribasi misolida): Iqt. fan. bo'y. fals. dok. (PhD) dis. avtoref. – T.. – 2019– 51 b.,
4. Axmedov A.D. Innovatsion faoliyatni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish: Yurid. fan. dok. (DSc) dis. avtoref. – T. – 2017 – 58 b.
5. Nurmanbet U. A. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Avtomobil tayèrgarligi kafedrasи katta o'qituvchisi podpolkovnik. International Scientific and Practical Conference 120 b. 2022-y.